



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEXANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEXANIZMLARI

Xudayarova Xurshida Abdunazarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Bank ishi” kafedrası dotsenti

xurshidabonu_x@mail.ru

+998938994433

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bank sohasida kiberjinoyatchilikning rivojlanish tendensiyalari, ularning moliyaviy tizim barqarorligiga ta'siri hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyatchilik, kiberfiribgarlik, moliya bozori, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish

Аннотация: В данной статье исследуются тенденции развития киберпреступности в банковской сфере в условиях цифровой трансформации, а также её влияние на устойчивость финансовой системы и вопросы обеспечения кибербезопасности.

Ключевые слова: киберпреступность, кибермошенничество, финансовый рынок, информационная безопасность, цифровые технологии, цифровизация.

Abstract: This article examines the development trends of cybercrime in the banking sector under digital transformation, as well as its impact on the stability of the financial system and issues of ensuring cybersecurity.

Key words: cybercrime, cyberfraud, financial market, information security, digital technologies, digitalization.

KIRISH

Tijorat banklari tomnidan mijozlarga xizmat ko'rsatishni jarayonini raqamli transformatsiya qilishi nafaqat zamon talabi balki, raqobatbardoshlik masalasidir. Aholining aksariyat qismi smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlarda «yashaganda», ular uchun oflayn raqobatlashish befoyda. Rivojlangan davlatlar banklarida deyarli barcha bank operatsiyalari, ehtimol, seyflardan va kassa xizmatlaridan tashqari, onlayn tarzda taqdim etilmoqda. Kredit olish jarayoni, hatto ipoteka krediti ham, juda soddalashtirilgan va raqamlashtirilgan. Gap shundaki, endi banklar ular haqida ko'plab ma'lumot manbalariga - kredit tarixlaridan tortib huquqni muhofaza qilish organlari ma'lumotlari gacha, shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan tahlillarga kirish imkoniyatiga ega. Ushbu vositalar mijozning kreditga layoqatligini tekshirish jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi va oxir-oqibat bank xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Neo va challenger banklarning mijozlar bilan masofaviy aloqalari deyarli 100% ga yet kazib berayotganini hisobga olsak, boshqa tijorat banklariga jismoniy filiallar sonini kamaytirish zarurati aniq bo'lib bormoqda. Masalan, AQSHda 2025 yilning birinchi choragida 148 ta bank filiali yopilgan¹, global prognozlarga ko'ra, 2026 yilda dunyo bo'yicha 8000 dan ortiq bank filiallari yopilishi mumkin².

Bank faoliyatini raqamlashtirish va ular tomonidan ushbu sohaga ajratilayotgan katta miqdordagi investitsiyalarning sababi — ichki raqamli mahsulotlarni yaratish zarurati: mobil ilovalar, masofaviy bank tizimlari, katta ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish va statistika to'plash vositalari, veb-saytlarni ishlab chiqish, axborot xujumlaridan himoya qilish dasturlarini yaratish bilan bog'liq harajatlardir. Bu yerda, IT sohasida bo'lgani kabi, yangi mahsulotlarni bozorga chiqarish tezligi muhim ahamiyat kasb etdi. Bank tizimida raqamlashtirish zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning muhim omili ekan, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi bank faoliyati samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va mijozlar uchun qulaylik yaratish imkonini beradi.

1 https://www.spglobal.com/market-intelligence/en/news-insights/articles/2025/5/pace-of-us-bank-branch-closures-picks-up-in-q1-2025-88699893?utm_source=chatgpt.com

2 https://coinlaw.io/bank-branch-closure-statistics/?utm_source=chatgpt.com



Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bank tizimi uchun yangi xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, kiberjinoiyatlar, ma'lumotlar o'g'irlanishi, fishing, zararli dasturlar va onlayn firibgarlik holatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Kiberxujumlar nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligiga, balki mijozlar ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli bank tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, kiberjinoiyatlarga qarshi kuchli himoya mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy jinoyatlar va firibgarlik tushunchalarini o'zaro farqlash qabul qilingan bo'lsa-da, kibertahdidlar sonining ortishi, jinoiy sxemalarning murakkablashuvi hamda turli xil jinoyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi natijasida ular o'rtasidagi chegaralar tobora noaniq tus olmoqda.

Bunday holat moliyaviy jinoyatlarni kategoriyalash bo'yicha an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni hamda ularni aniqlash va oldini olishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Firibgarlik deganda hujjatlarni soxtalashtirish, kredit firibgarligi, shuningdek, xodimlarni aldash orqali o'g'irlik sodir etishni o'z ichiga olgan insayderlik tahdidlari kabi jinoyatlar tushuniladi. Moliyaviy muassasalar, odatda, firibgarlikni moliyaviy yo'qotishlar manbai sifatida baholaydilar.

«Kiberjinoiyatchilik» atamasi deganda kompyuter texnikasi, smartfonlar va boshqa maxsus texnik vositalar yordamida sodir etiladigan jinoyat turi tushuniladi. Bunday jinoyatlar internet tarmog'idagi firibgarlik, litsenziyalanmagan dasturiy ta'minotdan foydalanish hamda boshqa turdagi huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va Jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC — United Nations Office on Drugs and Crime) ga qo'ra «Kiberjinoiyatchilik» axborot texnologiyalari yoki kompyuterlar komissiyaning asosiy vositasi, hujum maqsadi yoki asosiy jinoyat joyi sifatida harakat qiladigan noqonuniy harakat³.

A.Aloyeva ta'kidlashicha, kiberjinoiyatchilik insoniyat duch kelgan zamonaviy davrning eng yirik muammolaridan biri hisoblanadi va jinoyat qaysi davlatda sodir etilganidan qat'i nazar, ushbu muammo butun jahon hamjamiyatiga daxldordir. Uning fikricha, texnologik taraqqiyot uzluksiz davom etayotgani sababli mazkur holat kelgusida yanada keskinlashib boradi⁴. Shuni alohida qayd etish lozimki, texnologik taraqqiyot sur'ati kibermakondagi jinoyatlarga oid normativ-huquqiy bazaning rivojlanishidan ancha tez kechmoqda.

T.A.Dalgali ning fikricha, «kiberjinoiyatchilik» tushunchasi «kompyuter jinoyatchiligi» atamasi bilan yonma-yon qo'llaniladi. Mazkur ikki tushuncha mazmunan yaqin bo'lsa-da, kiberjinoiyatchilik ancha keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Chunki u nafaqat raqamli makonni, balki telekommunikatsiya tarmoqlarini va umuman barcha axborot makonini ham qamrab oladi⁵.

K.N. Yevdokimovning ta'kidlashicha, kiberjinoiyatchilik — bu shaxslar tomonidan moddiy yoki intellektual boyliklarni talon- toroj qilish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda qasddan sodir etiladigan g'ayriqonuniy harakatlardir⁶.

Kiberjinoiyatchilik tushunchasini aniqlashga doir nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi rivojlanish bosqichida kiberjinoiyatchilikka yagona yondashuv mavjud emas. Bundan tashqari, mavjud yondashuvlar o'rtasida sezilarli farqlar kuzatiladi. Bu esa ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi, shuningdek, jinoiy qilmishlarni noto'g'ri identifikatsiya qilishga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holat nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham jiddiy muammo hisoblanadi.

Kiberjinoiyat va kiberfiribgarlik o'zaro yaqin, biroq aynan bir xil tushunchalar emas.

Kiberjinoiyatchilik — kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan har qanday jinoiy faoliyatni qamrab oluvchi keng tushunchadir. Kiberfiribgarlik esa nisbatan tor ma'nodagi tushuncha bo'lib, insonlarni aldash yoki ularning mablag'larini talon- toroj qilishga qaratilgan, kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan jinoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma'noda, kiberfiribgarlik kiberjinoiyatchilikning bir ko'rinishi hisoblanadi. Har qanday kiberfiribgarlik kiberjinoiyat sanaladi, biroq har qanday kiberjinoiyat kiberfiribgarlikka kirmaydi.

3 <https://www.unodc.org/e4j/ru/cybercrime/module-1/key-issues/cybercrime-in-brief.html>

4 Алоева А.А. Информационный терроризм угроза национальной безопасности в условиях цифровизации [Текст] / А.А. Алоева, И.А. Алоев, А.З. Жуков // Пробелы в российском законодательстве. — 2020. — Т. 13. — № 6. — С. 197–201.

5 Далгалы Т.А. Киберкриминология: вызовы XXI века // Рос. юстиция. — 2020. — № 10. — С. 19.

6 Евдокимов К.Н. Вредоносные компьютерные программы как орудие и средство совершения преступлений: онтологические и гносеологические аспекты [Текст] / К.Н. Евдокимов // Рос. юстиция. — 2020. — № 3. — С. 56–61.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishda dialektik yondashuvdan foydalanishga tayanadi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli tahlil, statistik tahlil, tizimlashtirish hamda umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning axborot manbasini mamlakatimiz va jahon moliya bozoridagi kiberjinoatchilik va kiberfiribgarlikka oid statistik ma'lumotlar, kiberjinoatlarning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, mavzu doirasidagi ilmiy adabiyotlar va tadqiqot materiallari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2025 yilda jahonda eng keng tarqalgan iqtisodiy jinoyatlar qatoriga kiberjinoatchilik, mijozlarga nisbatan firibgarlik, korrupsiya, davlat va korporativ xaridlar sohasidagi firibgarlik, aktivlarni o'zlashtirish hamda jinoiy daromadlarni legallashtirish (pul yuvish) kiradi. PwC tashkilotining *Global Economic Crime Survey 2024* tadqiqotiga ko'ra, aynan kiberjinoatchilik va firibgarlik biznes subyektlari hamda moliyaviy institutlar uchun eng keng tarqalgan va jadal o'sib borayotgan tahdidlar hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, ya'ni PwC va Reuters ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda ham dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan iqtisodiy jinoyatlar sifatida kiberjinoatchilik, mijozlarga nisbatan firibgarlik, korrupsiya hamda aktivlarni o'zlashtirish (o'g'irlash) holatlari saqlanib qolmoqda (1-rasm).



1- rasm. Eng keng tarqalgan iqtisodiy jinoyatlar statistikasi (2024)⁷

Tadqiqotlarning asosiy xulosasiga ko'ra kiberjinoatchilik dunyo bo'ylab iqtisodiy jinoyatlarning eng keng tarqalgan shakli sifatida tan olingan. Taxminan 46% tashkilotlar so'nggi ikki yil ichida iqtisodiy jinoyatlarga duch kelganliklarini ma'lum qilgan. Xaridlar (sotib olish) sohasidagi firibgarlik so'nggi yillarda eng zararli iqtisodiy jinoyatlarning uchlik reytingiga kirgan. AQSH Federal tergov byurosi (FBI) ma'lumotlariga ko'ra, 2024–2025 yillarda kiberjinoatchilikdan ko'rilgan zarar 16 milliard AQSH dollaridan oshgan. Buyuk Britaniyada firibgarlik holatlari soni 12% ga oshib, 3,31 million holatga yetgan.

Firibgarlikning asosiy obyekti bank muassasalarining resurslari hisoblanadi. Shuningdek, bank tizimiga nisbatan amalga oshiriladigan kompyuter hujumlari rasmiy statistikada ko'rsatilgandan ancha ko'pdir. Bu holat shundan dalolat beradiki, ko'plab kiberhujumlar muvaffaqiyatsiz yakunlanadi, elektron bank tizimida aniqlangan bo'shliqlar esa tez fursatda bartaraf etiladi.

⁷ [PwC Global Economic Crime and Fraud Survey 2024](https://pwc.com/gov/au/en/issues-and-ideas/industry-issues/cybercrime-and-fraud/cybercrime-and-fraud-survey-2024)



Bank faoliyatida sodir etiladigan kiberjinoatlarning asosiy turlari quyida keltirilgan jadvalda umumlashtirildi (1-jadval).
Bank soxasidagi kiberjinoatlar turi

Nomlanishi	Xususiyati
Fishing	Aldovchi elektron xatlar va saytlar orqali ma'lumotlarni o'g'irlash
Onlayn bank hisoblariga noqonuniy kirish	Xakerlik hujumlari
Karta ma'lumotlarini o'g'irlash va klonlashtirish Card skimming	Bank kartalaridan ma'lumotlarni noqonuniy ravishda o'g'irlash usuli bo'lib, odatda maxsus qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.
Moliyaviy firibgarlik	Yolg'on tranzaksiyalar va to'lovlar
Zararli dasturlar	Virus, troyan va shpion dasturlar orqali bank tizimlariga zarar yetkazish
DDoS hujumlar	Bank onlayn xizmatlarini ishdan chiqarishga qaratilgan hujumlar
Korrupsiya	Ichki xodimlar tomonidan ma'lumotlarni noqonuniy o'zlashtirish
e-payment fraud	Elektron to'lov tizimlari orqali firibgarlik operatsiyalari

Kiberjinoatchilar o'z usullarini doimiy ravishda takomillashtirib boradi. Shu sababli moliyaviy muassasalar xavfsizlik tizimlarini uzluksiz yangilab borishi hamda foydalanuvchilarning xabardorlik darajasini oshirishi zarur.

Shuni ta'kidlash lozimki, axborot xavfsizligi xavfi (kiberxavfni ham o'z ichiga olgan holda) hamda axborot tizimlari xavfi operatsion riskning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda elektron bank xizmatlari sharoitida kiberjinoatlar bilan bog'liq asosiy xavf manbalari quyidagilardan iborat: to'lov kartalari bilan bog'liq operatsiyalar, bankomatlar orqali xizmat ko'rsatish, internet-banking tizimida xizmat ko'rsatish, shuningdek, mobil banking tizimi orqali xizmat ko'rsatish uchun mobil ilova dasturlaridan foydalanish. Shu sababli, elektron bankingda kiberjinoatchilik risklarini sifatli aniqlash uchun ularni quyidagicha tasniflash lozim:

- 1) to'lov kartalari bilan firibgarlik riski;
- 2) ATM (bankomat) lar bilan firibgarlik riski;
- 3) internet va mobil qurilmalar orqali firibgarlik riski.

So'ngi yillardagi ro'yxatga olingan kiberjinoatlar sonining keskin ortishi ayrim olimlar tomonidan internet foydalanuvchilari sonining yil sayin o'sib borishi bilan izohlanadi. Internet foydalanuvchilari sonining ko'payishidan tashqari, kiberjinoatchilikning tarqalish dinamikasiga quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

- jamiyatni axborotlashtirish jarayonining jadal sur'atlarda rivojlanishi (jumladan, mobil aloqa operatorlari tomonidan uchinchi avlod tarmoqlari — 5G texnologiyasining joriy etilishi);
- kibertexnologiyalarni jinoiy faoliyat vositasi sifatida o'zlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar texnik imkoniyatlarining obyektiv ravishda orqada qolishi va boshqalar.

Moliyaviy xizmatlar bozori raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Bu esa an'anaviy moliyaviy tashkilotlarning keyingi faoliyati uchun jiddiy chaqiriqlarni yuzaga keltirdi. Shakllangan mazkur sharoitda moliyaviy tashkilotlar tobora ko'proq fintex-kompaniyalar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yimoqda hamda o'z infratuzilmasini modernizatsiya qilish, operatsion jarayonlarni takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va axborot xavfsizligi tizimlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini keskin oshirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog'ida axborot tarqatish va ma'lumot izlash imkoniyatlari kengaymoqda. Jumladan, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning soni 31 milliondan oshgan bo'lib, shundan 14 millioni ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda.

Shu bilan birga, huquqbuzarlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish holatlari kun sayin ortib bormoqda. Xususan, so'nggi olti yilda yurtimizda kiberjinoatlar bo'yicha murojaatlar soni 48 baravarga oshgan. O'tgan yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 82 foizi, o'g'irlik jinoyatlarining 76 foizi kibermakonda sodir etilgan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 2 trillion so'mdan oshgan.

Ta'kidlash kerakki, bugun muhim axborot infratuzilmasi obyektlariga qarshi qaratilgan kiberhujumlar natijasida katta salbiy oqibatlar va moddiy zarar olib keluvchi kiberhujumlar global tus olib, respublikamizda ham kuzatilmoqda. Bu esa yuridik shaxslar o'z tasarrufidagi axborot tizimlarining xavfsizligini bugungi kundagi zamonaviy tahdidlarga munosib tarzda takomillashtirib borishi va kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor



qaratishini taqozo etmoqda. Xususan, o'tgan yillarda 3 ta bank tizimidagi zaiflik tufayli 3025 nafar mijozga 17 milliard so'm moddiy zarar yetkazilgan.⁸

O'zbekistonda kiberjinoatlarning 98 foizi bank kartalari bilan bog'liq bo'lib, fuqarolar 1,9 trln so'm zarar ko'rgan. 2024 yilda umumiy jinoyatlarning 44,4 foizi kiberjinoatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mashhurlar qiyofasidan foydalangan holda jinoyat sodir etish (dipfeyk) ham ommalashmoqda.⁹

Kiberxavfsizlikni ta'minlash moliyaviy muassasalar va milliy moliyaviy regulyatorlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda kibertahdidlarga qarshi kurash xalqaro iqtisodiy forumlar va konferensiyalarda muhokama qilinadigan eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan bo'lib, mazkur muammo xorijlik olimlar ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Hozirgi vaqtda tashkilotlar axborot xavfsizligi monitoringi tizimlarining qamrovini kengaytirishga intilmoqda, biroq an'anaviy SIEM- yechimlarining texnik cheklovlari bilan to'qnash kelmoqda. Shu munosabat bilan, kiberhujumlarning murakkabligi ortib borayotgan sharoitda NTA (Network Traffic Analysis), EDR (Endpoint Detection and Response) kabi ixtisoslashtirilgan yechimlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kiberjinoatchilik va kiberfiribgarlik moliya bozori uchun jiddiy hamda doimiy rivojlanib borayotgan tahdid hisoblanadi. Kiberjinoatchilar tomonidan qo'llanilayotgan taktikalarning xilma-xilligi, shuningdek raqamli texnologiyalarga bog'liqlikning ortib borishi mazkur tahdidlarga qarshi kurashishda kompleks yondashuvni talab etadi.

Mamlakatimizda ma'lumotlar sizib chiqishi va kiberhujumlar sonining ortishi bir qator omillar bilan izohlanishi mumkin:

1. Moliyaviy muassasalar mijozlarga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan katta hajmdagi maxfiy axborotni saqlaydi, bu esa ularni kiberjinoatchilar uchun jozibador nishonga aylantiradi.

2. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi va bank xizmatlarining raqamlashuvi natijasida hujumlarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayib, jinoyatchilar tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan yangi zaifliklar yuzaga kelmoqda.

3. Ayrim moliyaviy muassasalarda ma'lumotlarni himoya qilish darajasi yetarli emasligi, eskirgan dasturiy ta'minotdan foydalanilishi yoki xodimlarning yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi ularni kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlarga nisbatan zaif qilib qo'yadi.

Shunday qilib, hozirgi kunda moliyaviy institutlar va muassasalar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga obyektiv ehtiyoj mavjud.

Bank muassasalarida eng keng tarqalgan kiberjinoat turlaridan biri mijozlar hisobvaraqlariga qaratilgan hujumlar hisoblanadi. Jinoyatchilar bank akkauntlariga noqonuniy kirish, to'lov ma'lumotlarini qo'lga kiritish, moliyaviy mablag'larni talon-toroj qilish va bank muhofaza tizimlarini chetlab o'tish usullarini muntazam takomillashtirib bormoqda.

Zamonaviy sharoitda infratuzilmani yuqori darajada muhofaza qilish bilan birga texnologik jarayonlar samaradorligini saqlab qolishni ta'minlaydigan dasturiy va texnik vositalar majmuasidan foydalanish zarur. Hujumlarning oldini olishda ijtimoiy muhandislik usullari ham samarali hisoblanadi. Jumladan, kompaniya xodimlarini internet tarmog'ida xavfsiz ishlash bo'yicha muntazam yo'riqlash va ularni mavjud tahdid turlari haqida xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiberxavfsizlik sohasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va kibertahdidlar haqida axborot almashish kiberhujumlar xavfini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hamkorlik va tarmoq alyanslarini shakllantirish kompaniyalarga o'z himoya darajasini jamoaviy tarzda oshirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan, ayniqsa neyron tarmoqlardan foydalanish, murakkablashib borayotgan tahdidlarga tez va samarali javob qaytarish imkonini beradi. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va yangi tahdidlarga an'anaviy usullarga nisbatan 98 foiz tezroq moslashish imkoniyatiga ega.

Mavjud noaniqlik va mamlakat iqtisodiy tizimining keng ko'lamli transformatsiyasi sharoitida moliya bozori oldida import o'rnini bosish, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun yangi kadrlarni tayyorlashga qaratilgan strategiya ishlab chiqish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, kiberxavflarni doimiy monitoring qilish va ularni neytrallashtirish choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. IT-xizmatlarni rivojlantirish, raqamli ko'nikmalarni shakllantirish, ilmiy-texnik ishlanmalar va innovatsion infratuzilmani takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni hal etish zarur.

⁸ <https://president.uz/uz/lists/view/9009>

⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2025/11/05/cybercrime/>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алоева А.А. Информационный терроризм угроза национальной безопасности в условиях цифровизации [Текст] / А.А. Алоева, И.А. Алоев, А.З. Жуков // Пробелы в российском законодательстве. — 2020. — Т. 13. — № 6. — С. 197–201.
2. Далгалы Т.А. Киберкриминология: вызовы XXI века // Рос. юстиция. — 2020. — № 10. — С. 19.
3. Евдокимов К.Н. Вредоносные компьютерные программы как орудие и средство совершения преступлений: онтологические и гносеологические аспекты [Текст] / К.Н. Евдокимов // Рос. юстиция. — 2020. — № 3. — С. 56–61.
4. <https://www.unodc.org/e4j/ru/cybercrime/module-1/key-issues/cybercrime-in-brief.html>
5. https://www.spglobal.com/market-intelligence/en/news-insights/articles/2025/5/pace-of-us-bank-branch-closures-picks-up-in-q1-2025-88699893?utm_source=chatgpt.com
6. https://coinlaw.io/bank-branch-closure-statistics/?utm_source=chatgpt.com
7. PwC Global Economic Crime and Fraud Survey 2024
8. <https://president.uz/uz/lists/view/9009>
9. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/11/05/cybercrime/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>